

## YANGI KONSTITUTSIYA-YANGI KELAJAGIMIZ POYDEVORI

**Hajiyeva Zulxumor Sherifboy qizi**

*Andijon davlat pedogogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda fuqarolarimiz o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanganlik darajasi hamda Yangi Konstitutsiyamizning mazmun mohiyati haqida fikr yuritilgan. Yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarning ahamiyati va yangiliklari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Konstitutsiya, Taraqqiyot strategiyasi, call-markaz, O'zbekiston-2030, Elektron hukumat*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается уровень формирования правосознания и правовой культуры среди наших граждан, а также содержание нашей новой конституции. В нем изложена важность и новизна поправок и дополнений к нашей новой конституции.*

**Ключевые слова:** *Конституция, стратегия развития, call-центр, Узбекистан-2030, Электронное правительство*

**Annotation:** *this article reflects on the level of formation of legal consciousness and legal culture among our citizens today, as well as the essence of the content of our new Constitution. The significance and innovations of the amendments and additions to our new Constitution are described.*

**Keywords:** *Constitution, development strategy, call center, Uzbekistan-2030, e-government*

### KIRISH

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlab chiqish va uning muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan umumxalq muhokamasi bo'lib o'tdi. Bu takliflarning 56 foizi erkaklar, 40 foizi ayollar tomonidan, 4 foizi esa anonim tarzda bildirilgan. Unda xorijdagi vatandoshlar yuborgan takliflar ham inobatga olingan va ilmiy hamjamiyat ishtirokida muhokama qilinib, Konstitutsiyaviy komissiyaga taqdim etilgan. XXI asrda dunyoning 90 ga yaqin davlatida konstitutsiyaviy islohatlar muvofaqiyatli o'tkazildi. 57 ta davlatda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Shu jumladan O'zbekistonda ham konstitutsion islohotlar o'tkazildi. Yangi O'zbekiston yangi qadamlar, yangi g'oyalar va yangi konstitutsiya. Bu islohotlarning barchasi O'zbekistonni yana bir karra dunyoga tanitadi desak adashmagan bo'lar edik. Yangi

Konstitutsiyaga nega ehtiyoj tug'ildi degan savol tug'ilishi shubhasizdir. Mustaqil O'zbekistonning birinchi konstitutsiyasi yangi zamon talablariga javob bermay qoldimi shu kabi savollar xalqni o'ylantirishi mumkin. Shuni aytib o'tish joizki o'tgan qisqa davr mobaynida jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy madaniy va ma'rifiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Insonlarning yashash jarayoni boshqacha tarzda amalga oshadigan bo'ldi

### **MATERILALLAR VA USULLAR**

Yangi Konsitutsiya inson – jamiyat -davlat tamoyili asosida tashkil qilindi. Xususan konsitutsiyada demokratik davlat qurish, nogironligi bo'lgan shaxslarni xotin-qizlar, yoshlar va aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari erkinliklarini, huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy davlat qurish, xususiy mulkni tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlashga doir ko'pgina moddalar tuzildi va o'zgartirish qo'shimchalar kiritildi. Misol uchun 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi konsitutsiyamizning 1- moddasiga ko'ra “O'zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi” . Yangi Konstitutsiyaga ko'ra “O'zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren demokratik xuquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O'zbekiston respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi. Ushbu moddada davlatimizning dunyoviy davlat ekanligi aniq takidlab o'tilgan bo'lib, shu bilan birgalikda ijtimoiy huquqiy davlat deb aytilgan. Ijtimoiy huquqiy davlat bu – demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng bo'lgan va hech kim qonunlardan ustun turmaydigan davlatdir.

Milliy davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari – pirovard natijada O'zbekistonda yangi va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgan bo'lib, bunda demokratiyaning davlat ichki hayotida ham, tashqi siyosatda ham o'rni juda muhim. Shu ma'noda, Konsitutsiyaviy qonun loyihasining 1-moddasida belgilanganidek, “O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” barpo etishning xalqaro tamoyillari, umume'tirof qilingan yo'riqlari mavjud bo'lib, bevosita fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash va saylanish huquqi va boshqalardan iborat. Ayni paytda, har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashishning o'ziga xos usuli, yo'li bor. Zero, demokratiyani joriy etishda yurtimizda o'zbekona, xalqchil tamoyillar shakllanayotganligi va hayotimizga kirib kelayotganligini e'tiborga olish kerak .

Yangi Konstitutsiyamizning 13-moddasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak,”O'zbekiston Respublikasi demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi,ularga ko'ra inson ,uning hayoti,erkinligi, sha'ni,qadr-qimmatini va boshqa

ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinligi Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi” deb belgilangan. Asosiy Qomusimizdan ko’rinib turganidek davlatimizda qonunlarimiz umuminsoniy prinsplarga asoslanganligi undan tashqari insonning qard-qimmatiga alohida e’tibor qaratilganligining guvohi bo’lishimiz mumkin. Hattoki erkinligimiz ham kafolatlanligini ko’rishimiz mumkin.

#### NATIJALAR

Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat tamoyilining konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi, inson qadrini yanada ulug'lash, hozirgi va kelgusi avlodlarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilganini alohida e'tirof etish zarur. Ushbu prinsipning isboti Konstitutsiyamizda yaqqol namoyon bo'lgan.

Erkinlik insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Insonning huquq va erkinliklari faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin. Shuningdek mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kun uchun alohida e'tiborga molikligi bilan ajralib turishining yana bir bora guvohi bo'ldik. Yana bir keng ko'lamli islohotlarda biri 2022-2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hisoblanadi. Ushbu strategiya o'z ichiga mahalla institutining faoliyatining samaradorligining oshirish, jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini tayanch bo'g'inga aylantirish; davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokратиyani bartaraf etish kabi bir nechta maqsadlar ilgari surilgan. Kuni kecha Prezidentimiz tomonidan joriy yil 11-sentabrda imzolangan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi farmoni yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini kengaytirish barobarida yangidan-yangi tashabbuslarga zamin yaratmoqda.

#### MUHOKAMA

Bugun yurtimiz hayotining barcha jabhalarida o'zgarish, islohotlar kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yo'q. Ayniqsa, so'nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to'siq bo'layotgan og'riqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir so'z bilan aytganda, bunday tarixiy yemrilishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Mazkur islohotlar zamirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi U. Jalmenov va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qo'mita raisi Sh. Otemisovlar “O'zbekiston – 2030” strategiyasining amalga oshirilishi va belgilangan vazifalarning

ijrosi ta'minlanishi holatini, buning doirasida ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini o'rganish, ijro holati yuzasidan axborotni har chorakda eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish yuzasidan o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirdi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi – xalq strategiyasi" shiori ostida belgilangan islohotlarning izchil, sifatli va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish ham mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lidagi jiddiy vazifalardan biri sanaladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekiston yangicha qarashlar bilan yaratilgan konstitutsiya avvalo xalqning fikr mulohazalari asosida yaratilgani ya'ni konstitutsiyaning muallifi o'zbek halqining o'zi ekanligi taqsimga sazovordir. Barcha sohalarni: ta'lim, tarbiya, san'at, sport, fan, madaniyat kabi sohalarga birdek e'tibor berilayotganligiga dalolatdir. Shunday ekan barcha yosh-u qari birdek bunday siyosiy jarayonga befarq bo'lmasligimiz lozim chunki o'z orzu umidlar bilan qurilgan mustahkam qo'rg'onimizda o'zimiz yashaymiz o'zgalar emas!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4872355>
2. <https://adolat.uz/news/ijtimoiy-davlat-inson-huquq-va-manfaatlari-ko-zgusi>
3. Ijtimoiy davlat — inson huquq va manfaatlari ko'zgusi | "Adolat" SDP
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2023
5. [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsad-va-vazifalar\\_532507](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsad-va-vazifalar_532507)